
BILIMLAR SARI CHORLAR BIRINCHI QO'NG'IROQ

Bugun yurtimizdagi barcha maktablarda birinchi qo'ng'iroq jarangladi. Bu qo'ng'iroq bu yil birinchi marta maktab ostonasiga qadam bosgan bolakaylar uchun chin ma'nodagi ilk qo'ng'iroq bo'ldi.

Toshloq tumanidagi umumta'lim maktablarida ham yangi o'quv yili "Bir bo'lsak -yagona xalqmiz,birlashsak -Vatanmiz" shiori bilan boshlandi.

Ayniqsa, tumandagi 15- umumta'lim maktabiga 1-sinfga qabul qilingan 116 nafar bolalarga tuman xokimi A.Djurabayev tomonidan tantanali ravishda "Prezident sovg'alari"ni topshirilishi bolajonlarga olam-olam quvonch ulashdi.

2023-2024 o'quv yilida "Tashabbusli byudjet" loyihasi natijasida maktabga sun'iy qoplamali stadion qurilishi boshlandi va 2024 yilning avgust oyida o'tkazilgan loyiha 6 xonali qo'shimcha bino loyixasi qo'lga kiritildi. Shuningdek maktab yangi o'quv yiliga shay xolatga keltirildi. Endilikda o'quvchilar yangi qurilgan o'quv binolarida barcha sharoitlarga ega sinfxonalarda ta'lim-tarbiya oladilar. Bayramona ruhda o'tgan "Bilimlar kuni" tadbirlari 15-umumta'lim maktabida ham keng nishonlandi. Unda so'z olganlar o'quvchilarni yangi o'quv yili bilan tabrikladilar. Maktabda "Bilimlar kuni" tadbirlari doirasida "O'zbekiston - mening Vatanim" shiori ostida "Mustaqillik darslari" bo'lib o'tdi.

Tadbir doirasida tuman hokimi ta'lim dargohining 11-sinf o'quvchilariga "Mustaqillik darsi" o'tdi.

2024-09-04 10:40:18